

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY
KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN
FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA SAMARADORLIGI**

Umarov Husniddin Egambayevich

Guliston Davlat Pedagogika instituti, v.b dotsent

Xo‘jabekova Madina Xayrulla qizi

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli platformalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida zamonaviy ta‘lim muhitida keng qo‘llanilayotgan Plickers, Educaplay, Wordwall, Kahoot, Wheel of Names, ToyTheater va Topqir.uz platformalarining didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur vositalarning bo‘lajak pedagoglarda kreativ fikrlash, mustaqil faoliyat va innovatsion yondashuvni rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, pedagogik kompetentlik, raqamli ta‘lim, interaktiv platforma, boshlang‘ich ta‘lim, innovatsiya, didaktik vosita.

XXI asrda ta‘lim tizimi global axborot makonining ajralmas qismiga aylanib, pedagogik faoliyatga nisbatan yangicha talablarni ilgari surmoqda. Xususan, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida e‘tirof etiladi.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi shaxsning intellektual va ijodiy rivojlanishida fundamental ahamiyatga ega. Aynan ushbu davrda o‘quvchilarda tasavvur, fantaziya, muammoli vaziyatlarga yondashuv va ijodiy fikrlash elementlari shakllanadi. Bu jarayonning samaradorligi esa o‘qituvchining kasbiy kompetentligiga, xususan, uning kreativ salohiyatiga bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda raqamli platformalarning ta‘lim jarayoniga keng joriy etilishi o‘qitish metodikasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu vositalar ta‘limni individuallashtirish, interaktivlikni kuchaytirish va o‘quvchilarning faolligini oshirish imkonini bermoqda. Shu bois, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli platformalardan maqsadli foydalanish orqali ularning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari

Pedagogik adabiyotlarda ijodiy ko‘nikmalar shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bilimlarni qayta ishlash va noodatij vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyati



sifatida talqin etiladi. Ijodiylik (kreativlik) ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lib, u quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

- muammoga sezgirlik va uni aniqlash qobiliyati;
- divergent fikrlash (bir nechta yechimlarni ishlab chiqish);
- originallik (yangicha yondashuv);
- elaboratsiya (g‘oyani rivojlantirish va chuqurlashtirish).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ushbu komponentlarni shakllantirish ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Chunki boshlang‘ich ta‘limda o‘qituvchi ko‘proq ijodiy yondashuvni talab qiluvchi vaziyatlarga duch keladi.

An‘anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha reproduktiv faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, xususan raqamli platformalar, ijodiy faoliyatni faollashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli platformalarning didaktik imkoniyatlari va pedagogik salohiyati

Raqamli platformalar ta‘lim jarayonini tashkil etishda ko‘p funksiyali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv materialini multimediya asosida taqdim etish;
- interaktiv topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash;
- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tezkor teskari aloqa (feedback)ni ta‘minlash;
- o‘quv jarayonini gamifikatsiya qilish.

Mazkur imkoniyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning darsni kreativ tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirokga jalb etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Ta‘lim jarayonida raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanish o‘quv materialini turli-tuman shaklda taqdim etishga erishish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarda idrok qilishning turli kanallaridan foydalanishi tufayli ortiqcha zo‘riqish xavfidan qochib, ularning o‘rganilayotgan mavzuga e‘tiborini iloji boricha uzoqroq ushlab turishiga imkon beradi. Bundan tashqari, assotsiativ eslab qolish nazariyasiga ko‘ra turli sensor yo‘llar orqali takrorlangan ma‘lumotlar (masalan, matn, video, grafika va tovush kabi) yaxshiroq o‘zlashtiriladi va ancha uzoq saqlanadi” [1]

Raqamli platformalar asosida ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishning amaliy mexanizmlari

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan ishlashda quyidagi platformalardan tizimli va maqsadli foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Quyida ulardan ba‘zilariga nazar tashlaymiz:

Plickers platformasidan foydalanish Plickers platformasi 2011-yilda yaratilgan bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab millionlab ta‘lim beruvchilar tomonidan ta‘lim oluvchilarni baholash va sinfda tezkor natijalarni yig‘ish uchun foydalaniladigan bepul hamda qiziqarli ta‘lim vositasi hisoblanadi. Ushbu platforma dars jarayonida individual qurilmalar talab etilmagan holda QR kod orqali baholashni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu vosita orqali talabalar savol-javoblarni kreativ shaklda tuzish, diagnostik tahlil asosida darsni moslashtirish, reflektiv.



faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini egallaydi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilari pedagogik vaziyatni tezkor baholash va moslashuvchan qaror qabul qilishga o'rganadi

Educaplay – bu ta'lim faoliyati va o'yinlarini yaratish va almashish uchun onlayn platforma. Foydalanuvchilar interaktiv mashqlar, viktorinalar, krossvordlar va boshqa narsalarni yaratishlari yoki veb-saytda ko'plab foydalanishga tayyor namunalarni topishlari mumkin. Ushbu jarayonlar keyinchalik eksport qilinishi, chop etilishi yoki talabalar tomonidan kod orqali kirishi mumkin. Educaplay platformasi interaktiv o'quv materiallarini yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratadi: krossvordlar, testlar, moslashtirish mashqlari va videoga asoslangan topshiriqlar orqali o'quv materialini strukturaviy jihatdan qayta ishlash, o'yin elementlari asosida o'qitish, kreativ kontent yaratish kompetensiyasi rivojlanadi. Bu esa pedagogik dizayn ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Wordwall platformasi esa 2016-yildan o'qituvchilarga dunyoning istalgan joyidan turib foydalanish imkoniyatini yaratish uchun wordwall.net platforma shaklida ishga tushirilgan. Ushbu platformaning asosiy maqsadi ta'lim beruvchilarga darslarni qiziqarli hamda mazmunli tashkil etish uchun interfaol ta'lim resurslarini oson va qulay shaklda yaratishiga ko'maklashishdir. Wordwall yordamida bir xil mazmundagi topshiriqlarni turli formatlarda taqdim etish mumkin. Bu esa:

- o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasini hisobga olish;
- moslashuvchan o'qitish muhitini yaratish;
- ijodiy yondashuvni kengaytirishga imkon beradi.

Shunday ta'lim resurslaridan yana biri Kahoot o'yinga asoslangan o'quv platformasi bo'lib, u 2012 yilda Norvegiya fan va texnologiya universiteti olimlari tomonidan yaratilgan. U turli xil interfaol ta'lim resurslari va viktorinalarini yaratish, ularni ulashish hamda ta'lim olish jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qilishga yordam beradigan zamonaviy pedagogik dasturiy vosita hisoblanadi. Bugungi kunda Kahoot qulayligi va osonligi bilan ta'lim tashkilotlarida eng ko'p foydalaniladigan interfaol ta'lim platformalaridan biri bo'lib, 14 turdagi turli xil viktorinalarni yaratish mumkin. Kahoot platformasi o'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi. Ushbu platforma orqali bilimlarni interaktiv testlar asosida mustahkamlash, jamoaviy ishlashni tashkil etish, sog'lom raqobat muhitini yaratish mumkin. Bu jarayon o'qituvchining kreativ dars ssenariylarini ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Wheel of Names platformasi bu ro'yxatdan tasodifiy ism yoki elementni tanlash uchun mo'ljallangan bepul, qulay va moslashtiriladigan onlayn g'ildirak vositasi. U ta'lim, o'yinlar, taqdimotlar va yutuqli o'yinlar uchun mos bo'lib, foydalanuvchilarga g'ildirak ranglari, tovushlar va matnlarni o'zgartirish, shuningdek, yaratilgan g'ildiraklarni saqlash va ulashish imkonini beradi. Mazkur platforma tasodifiy tanlash mexanizmi orqali o'quvchilarni jarayonga jalb etadi. Bu esa barcha o'quvchilarning teng ishtirokini ta'minlaydi, darsda kutilmaganlik va qiziqishni oshiradi, ijodiy muhitni shakllantiradi.

ToyTheater esa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan, bepul, xavfsiz va ta'limiy onlayn o'yinlar platformasi. 2001-yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan ushbu sayt



matematika, o‘qish, san’at, musiqa va mantiqiy jumboqlarni qiziqarli o‘yinlar orqali o‘rgatadi. ToyTheater interaktiv o‘yinlari orqali vizual va obrazli tafakkur rivojlanadi, o‘yin asosida o‘rganish amalga oshiriladi, kichik yoshdagi o‘quvchilarning qiziqishi ortadi.

Topqir.uz – gamifikatsiya asosida ishlaydigan milliy platforma. Oddiy darslarni turli o‘yinlar orqali o‘tkazish imkonini beradi. Topqir.uz platformasi o‘zbek tilidagi interaktiv topshiriqlar bazasiga ega bo‘lib, milliy ta’lim kontentidan foydalanish, ona tilida kreativ mashqlar ishlab chiqish, madaniy qadriyatlarni integratsiya qilish imkonini beradi. Bu esa pedagogik faoliyatni milliy kontekstda tashkil etishga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish quyidagi shartlarga bog‘liq:

- bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish;
- metodik ta’minotni takomillashtirish;
- texnik infratuzilmani rivojlantirish;
- ta’lim jarayonini tizimli rejalashtirish.

Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish faqat texnologik emas, balki didaktik jihatdan asoslangan bo‘lishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalardan maqsadli foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Buyuk Britaniya ta’lim vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini o‘rtacha 25% oshiradi (Department for Education, 2023). Ushbu vositalar pedagogik jarayonni interaktiv, moslashuvchan va innovatsion shaklda tashkil etish imkonini beradi. Natijada, kreativ fikrlaydigan, raqamli kompetensiyaga ega, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallagan o‘qituvchilarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

“O‘qituvchilarning media savodxonligi va media ko‘nikmalari ularning kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin egallaydi. Axborot texnologiyalari vositasida o‘qitish, dars jarayonlarini boshqarish, axborotni tahlil qilish, tahrirlash va taqdim etish qobiliyatlari o‘qituvchilik kasbining ajralmas bo‘lagi bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, raqamli platformalarning samarali qo‘llanilishi orqali bu ko‘nikmalarni shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas jihatiga aylangan”[2]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Молокова, А.В. Комплексный подход к информатизации образовательного процесса в начальной школе. Дис.... д-ра пед. Наук / А.В. Молокова. -Новокузнецк, 2008.- 143 с.
2. Qodirova N.A. Media savodxonlik: nazariy asoslar va o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 136 b.

